

SHARTNOMA № 55/25
(Siqilgan gaz berish to'g'risida)

«16» iyul 2025 йил

Zarafshon shahri.

«ASKOMJ-ZARAFSHON» MChJ nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi korxona direktori A.Kuvondikov (keyingi o'rinlarda «Gaz to'ldiruvchi» deb nomlanadi) bir tomondan, Zarafshon shahri aholi yashash massivida yashovchi H. Ravshanov (keyingi o'rinlarda «Iste'molchi» deb nomlanadi) ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I. SHARTNOMANI MAZMUNI

mazkur shartnoma buyicha «Iste'molchi»ning avtotransportlarini siqilgan gaz bilan to'ldirishni, «Iste'molchi» esa o'z vaqtida hisob-kitob qilishni o'z zimmasiga oladilar.

№	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Jami 2025 yil	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
1	Gaz ballonli a/m uchun siqilgan gaz	m ³	500	—	—	500	—

«Gaz to'ldiruvchi» «Iste'molchi» ning avtotransportlariga siqilgan tabiiy gazni tarqatish vedomostlari bilan haydovchining yo'l varaqasi orqali siqilgan tabiiy gaz to'ldirilgan kun gaz to'ldirilgan sana hisoblanadi.

«Iste'molchi» «Gaz to'ldiruvchi»ga oy boshiga o'zining ishonchli vakilini ishonchnoma orqali yuborib ishonchnoma taqdim qiladi.

«Gaz to'ldiruvchi» «Iste'molchi»ga oy yakunlari bo'yicha tarqatilgan siqilgan tabiiy gazni tarqatish vedomostidan bir nusxa va hisob fakturalarni elektron shaklda keyingi oyning 10-sanasigacha taqdim qiladi.

II. HISOB-KITOB TARTIBI

2.1 Shartnomaning umumiy qiymati 2600000 (Ikki million oltin yuz ming so'm) ni tashkil qiladi.

2.2 Siqilgan tabiiy gaz 1m³ bahosi QQS solig'i bilan 5 200 so'm bo'lib, xom-ashyolar, moddiy boyliklar, yoqilgi energetika resurslari bahosi o'zgarganda va O'zbekiston Respublikasi qonunlar, qarorlari va boshqa normativ aktlariga asosan o'zgarishi mumkin.

2.3 «Iste'molchi» «Gaz to'ldiruvchi»ning bankdagi hisob raqamiga ushbu shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan limitdan chiqmagan holda hamda ushbu shartnomaning 2.2-bandida ko'rsatilgan so'mda 1 m³ siqilgan tabiiy gaz uchun 100% to'lovni oldindan amalga oshiradi.

2.4 «Iste'molchi» tomonidan qabul qilib olingan siqilgan tabiiy gaz uchun qarzdorlik vujudga kelgan hollarda «Gaz to'ldiruvchi» tomonidan «Iste'molchi»ning bank xisobvarag'idan uning rozilgisiz to'lov talabnomasi orqali mavjud qarzdorlikni undirishni amalga oshirishga xaqli hisoblanadi.

2.5 «Gaz to'ldiruvchi» «Iste'molchi»ning avtotransportlarini siqilgan tabiiy gaz bilan to'ldirishni bankdagi hisob raqamiga 100% to'lov amalga oshirilgandan keyin, ushbu shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiradi.

2.6 «Gaz to'ldiruvchi» tomonidan «Iste'molchi» avtotransporti to'ldirilgan siqilgan tabiiy gaz hajmi «Gaz to'ldiruvchi»ning o'lchov asboblari orqali aniqlanadi. O'lchov asboblari to'liq Davlat standartidan ro'yxatdan o'tkazilgan sertifikatga ega bo'lishi shart.

2.7 Xom-ashyolar, moddiy boyliklar, yoqilgi energetika resurslari bahosi o'zgarganda va O'zbekiston Respublikasi qonunlar, qarorlari va boshqa normativ aktlariga asosan siqilgan tabiiy gaz 1m³ bahosi o'zgarishi mumkin va bunday hollarda shartnomaga ikki tomonlama o'zgartirish kiritiladi.

TOMONLARNING MAJBURIYATLARI VA HUQUQLARI

3.1 «Iste'molchi» GBU (gazoballonli uskuna GBO) bilan jihozlangan avtotransportlarining texnik xolati va texnika xavfsizligi, yongin xavfsizligi, sanitariya va ekologiya xavfsizligi uchun javobgar hisoblanadi.

3.2 «Iste'molchi» ning majburiyatlari:

a) GBU o'rnatilgan avtotransportlarni va siqilgan tabiiy gazdan foydalanish to'g'risidagi amaldagi tartiblar, texnik holatlar, ko'rsatmalar va qarorlarni bajarish.

b) GBU ni va avtotransportlarini texnik soz holatda saqlash.

v) Yo'l varaqasida avtotransportning texnik sozligi haqida belgi qo'yish, ballonlar soni va geometrik hajmi to'g'risida ma'lumotlarni ko'rsatish;

g) Avtotransportni siqilgan tabiiy gaz bilan to'ldirish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olish;

d) Ballonlarning umumiy soni va geometrik hajmi (+/-) 0.5 aniqlikda avtotransport texpasportida (maxsus vkladish) yozib qo'yish.

3.3 «Gaz to'ldiruvchi» va «Iste'molchi» siqilgan tabiiy gaz bilan ta'minlash va qabul qilishni oy davomida bir maromda, bir kunlik o'tacha gaz hajmi miqdorida amalga oshiradilar.

3.4. «Iste'molchi» siqilgan tabiiy gazni qabul qilish bo'yicha barcha o'zgarishlar to'g'risida «Gaz to'ldiruvchi»ni oldindan 15 kundan kechiktirmay yozma ravishda yoki telefonogramma orqali ogohlantirishi shart.

3.5. «Gaz to'ldiruvchi» AGNKSh da joriy va kapital ta'mir ishlari boshlangan taqdirda «Iste'molchi» ni 3 kun oldin ishga tushishidan 15 kun oldin ogohlantiradi.

3.6 «Gaz to'ldiruvchi» majburiyatlari:

a) Gaz uskunalaridan to'g'ri foydalanishni, avtotransportlardagi nazorat-o'lchov asboblari va gazni ochish-yopish armaturalari sozligini tekshiradi.

b) «Iste'molchi» («Iste'molchi» vakili) tomonidan belgilangan qoidalar, gaz to'ldirish reglamenti, mazkur shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda avtotransportga siqilgan tabiiy gaz to'ldirish to'xtatiladi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1 Siqilgan tabiiy gazni qabul qilish mazkur shartnomada ko'rsatilgan hajmdan oshgan taqdirda qo'shimcha shartnoma tuziladi.

4.2 Ushbu shartnomadagi majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarmaganlikda ayblab bir taraf, ikkinchi tarafga, etkazib bermagan yoki etkazib berishdan bosh tortgan mahsulot qiymatining 0,4 foizi miqdorida jarima, yetkazib berilgan tovarlar haqini to'lovini o'tkazib yuborgan har bir bank kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi.

4.3 Tomonlar mazkur shartnomada belgilangan shartlarni bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq javobgar hisoblanadilar.

V. FORS MAJOR

5.1 «Gaz to'ldiruvchi» va «Iste'molchi» quyidagi hollarda gaz to'ldirish va qabul qilish hajmini kamaytirganligi uchun javobgar hisoblanmaydi.

a) gaz chiqarish konlarida, magistral gaz quvurlarida, shahar tuman gaz tarmoqlarida, elektr tarmoqlarida kutilmagan avariya holatlari sodir bo'lganda;

b) magistral gaz quvurlarida, shahar tuman gaz tarmoqlarida, elektr tarmoqlarida navbatdagi joriy va kapital ta'mir ishlari, sinovlar o'tkazilganda va payvandlash ishlari davrida.

VI. SHARTNOMA MUDDATI

6.1 Mazkur shartnoma taraflarining vakolatli shaxslari tomonidan imzolalanib G'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2025 yil 31 dekabrgacha amal qiladi..

6.2 Shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir nusxasi «Gaz to'ldiruvchi»da, bir nusxasi «Iste'molchi»da saqlanadi va bir xil ahamiyatga ega.

6.3 Shartnomada ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha savollarni tomonlar amaldagi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 30.01.1999 yilda ro'yxatga olingan 613-sonli «Avtomobillarga tarqatma jadvallar bo'yicha suvultirilgan gaz va siqilgan gaz to'ldirish», «Magistral gaz quvurlari orqali iste'molchilarga gaz yetkazib berish tartibi» hujjatlari yordamida hal qilishi mumkin.

6.4 Mazkur shartnoma bo'yicha nizolar Iqtisodiy sud tartibida O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

VII. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

7.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

7.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

7.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taasurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi.

7.4. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zlarining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi: a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga

xilof ravishda tijorat yoki boshqa tushdagi ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf' olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga; b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga

ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish, yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunda pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbayini, turgan joyini tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirishga; v) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

7.5. Taraflar tovarlar (ishlar, xizmatlar), ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, lisenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyutorlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarga) nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshirishlari shart: - korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish; - ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik; - ularni faqat taraflarning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish; - ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

7.6. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 7.4- va 7.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yilganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoida buzarlilklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

VIII. TOMONLAR HUQUQIY MANZILLARI VA REKVIZITLARI

«Gaz to'ldiruvchi»

«ASKOMJ-ZARAFSHON» MCHJ

Zarafshon shaxar Sanoat hududi

X/r: 20208000900952430001

MFO:00873 INN:305917515

NDS KOD: 312010037059

Asaka bank Zarafshon filiali

Тел: +99893 950 1221,



A.Kuvondikov

«Iste'molchi»

Зарафшон шаҳар хонадон
мўл. Бағрид 45 таъс 1/4
X/P-4001228601240870 1120401801

X/r: 7340200500100001010

INN: 201122 919 , MFO: 00014

Зарафшон ш. Фахратулло
09.11.11

